



ISSN 2181-9130

Doi Journal 10.26739/2181-9130

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

10 ЖИЛД, 12 СОН

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 10, НОМЕР 12

JOURNAL OF LAW RESEARCH

VOLUME 10, ISSUE 12



ТОШКЕНТ-2025

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF LAW RESEARCH

№12 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9130-2025-12>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Abdurasulova Qumriniso Raimqulovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Fayziev Shoxrud Farmonovich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

12.00.01 - ДАВЛАТ ВА ҲУҚУҚ НАЗАРИЯСИ ВА ТАРИХИ. ҲУҚУҚИЙ ТАЪЛИМОТЛАР ТАРИХИ / ТЕОРИЯ ПРАВА И ГОСУДАРСТВА, ИСТОРИЯ ПРАВОВЫХ УЧЕНИЙ / THEORY OF LAW AND STATE, HISTORY OF LEGAL DOCTRINES

Boboyev Halimboy Boboyevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Ahmedshaeva Mavlyuda Axatovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Adilxodjayeva Surayyo Maxkamovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Sattorov Abdug'afvor
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Yosuke Shamoto
yuridik fanlar doktori, professor (Yaponiya)

Umarxonova Dildora Sharipxanovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Nematov Jo'rabek Nematilloevich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

12.00.02 - КОНСТИТУЦИОННЫЙ ҲУҚУҚ, МАЪМУРИЙ ҲУҚУҚ, МОЛИЯ ВА БОЖХОНА ҲУҚУҚИ / КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО; АДМИНИСТРАТИВНОЕ ПРАВО; ФИНАНСОВОЕ ПРАВО / CONSTITUTIONAL LAW; ADMINISTRATIVE LAW; FINANCIAL RIGHT

Malikova Gulchexra
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Xusanov Ozod Tillabayevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Selimanova Svetlana Mixaylovna
yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)

Xvan Leonid Borisovich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

Peshkova Xristina Vyacheslavovna
yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)

Sung Un Lee
yuridik fanlar doktori, professor (Janubiy Koreya)

12.00.03 - ФУҚАРОЛИК ҲУҚУҚИ. ТАДБИРКОРЛИК ҲУҚУҚИ. ОИЛА ҲУҚУҚИ. ХАЛҚАРО ХУСУСИЙ ҲУҚУҚ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО; ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО; СЕМЕЙНОЕ ПРАВО; МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО / CIVIL LAW; BUSINESS LAW; FAMILY LAW; PRIVATE INTERNATIONAL LAW

Oqyulov Omonboy
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Ro'zinazarov Shuhrat Nuraliyevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Ruziyev Rustam Jabborovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Borotov Mirodiljon Xomudjonovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Toshev Boboqul Norqobilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Shomuxamedova Zamira Shoislamovna
yuridik fanlar doktori, (O'zbekiston)

Ahmad Issa Altweissi
yuridik fanlar doktori, professor (Iordaniya)

Mexmonov Kambariddin Miradxamovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

12.00.04 - ФУҚАРОЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ХЎЖАЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ҲАҚАМЛИК ЖАРАЁНИ ВА МЕДИАЦИЯ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; ХОЗЯЙСТВЕННОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; АРБИТРАЖНЫЙ ПРОЦЕСС И МЕДИАЦИЯ / CIVIL PROCEDURE LAW; ECONOMIC PROCEDURAL LAW; ARBITRATION PROCESS AND MEDIATION

Esanova Zamira Normurodovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Mamasidiqov Muzaffar Musajonovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Jason A.
Kanton Federal sud markazi (AQSH)

Borut Strazisar
Yuridik bo'lim boshlig'i (Sloveniya)

12.00.05 - МЕҲНАТ ҲУҚУҚИ. ИЖТИМОИЙ ТАЪМИНОТ ҲУҚУҚИ / ТРУДОВОЕ ПРАВО; ПРАВО СОЦИАЛЬНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ / THE LABOR LAW; SOCIAL SECURITY LAW

Usmanova Muborak Akmalxanovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Gasanov Mixail Yuriyevich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

Sattorova Gulnoza Djurakulovna
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

Murodova Gulnora
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

Denisov Gleb
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

Fayziyev Shuxrat Xasanovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Usmonov Muhammadi Bahridinovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Xolmuminov Juma
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Jo'rayev Yuldash Achilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Nurmatov Mirg'olib Mirzayevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Po'latov Baxtiyor Xalilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Salomov Baxrom Salomovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Osmonaliyev Qayrat
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Mirzayev Aziz
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Aleksey Kibalnik
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Kudryavtsev Vladislav Leonidovich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Sergey Shoshin
yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)
James B.
Eaglin Federal sud markazi (AQSH)

Rustambayev Mirzayusup Hakimovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Zufarov Rustam Axmedovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Kabulov Rustam
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Rajabova Mavjuda Abdullayevna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Taxirov Farhod
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Ismailov Isomiddin
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Hamidov Nurmuhammad Orif o'g'li
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (O'zbekiston)
Yuldoshev Rifat Raxmadjonovich
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)
Djansarayeva Rima Ernatovna
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)
Yelena Antonyan Aleksandrovna
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Matthew Light
yuridik fanlar doktori, professor (Kanada)
Qo'shayev Nurali Mahmudovich
yuridik fanlar nomzodi, dotsent (O'zbekiston)


Inog'omjonova Zumratxon Fatxullayevna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Pulatov Yuriy Safiyevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
To'laganova Gulchehra Zaxitovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Muxiddinov Faxriddin Muxiddinovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Mirzov Davron Miragzamovich
yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)
Rijakov Aleksandr Petrovich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

Stoyko Nikolay Genadyevich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Iskandarov Zayniddin
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)
Sergey Pen
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)
Aleksey Purs
yuridik fanlar doktori, dotsent (Belarus)
Jurgen Maurer
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)
Kevin Curtin
yuridik fanlar doktori, professor (AQSH)

Ismoilov Bahodir Islamovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Matkarimova Gulchehra Abdusamatovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Yuldasheva Govxerjan
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Alexander Trunk
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)

1. Садибекова Молдир Сеилхановна СООТНОШЕНИЕ ПОНЯТИЙ «ГОСУДАРСТВЕННАЯ УСЛУГА» И «ПУБЛИЧНАЯ УСЛУГА» ПО ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВУ КАЗАХСТАНА И УЗБЕКИСТАНА.....	5
2. Камалова Гулноза Абдубаситовна КРУПНАЯ СДЕЛКА ХОЗЯЙСТВЕННЫХ ОБЩЕСТВ: ТЕОРЕТИКО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ И ПРОБЛЕМЫ ПРАВОПРИМЕНЕНИЯ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.....	15
3. Алиходжаев Комил Кадинович АҲОЛИ БАНДЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШГА ҚАРАТИЛГАН ҚОНУНЧИЛИК ИЖРОСИ УСТИДАН ПРОКУРОР НАЗОРАТИНИНГ ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖИҲАТЛАРИ.....	23
4. Хакимова Камола Фаррух кизи ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ АДВОКАТОВ И ПРАВООХРАНИТЕЛЬНЫХ ОРГАНОВ УЗБЕКИСТАНА: БАЛАНС ЭФФЕКТИВНОСТИ И АДВОКАТСКОЙ ТАЙНЫ.....	32
5. Сафаев Мансурбек Илхомжонович ПРОКУРАТУРА ОРГАНЛАРИ ФАОЛИЯТИНИ ХАЛҚАРО СТАНДАРТЛАР АСОСИДА ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ ТАВСИФИ.....	42
6. Ahmadjonov Sultonbek Shukurillo o'g'li QALBAKI PUL, AKSIZ MARKASI YOKI QIMMATLI QOG'OZLAR YASASH VA ULARNI O'TKAZISH JINOYATINING AYRIM JINOIY-HUQUQIY, KRIMINOLOGIK HAMDA TERGOV TAKTIKASI JIHATLARI (O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI JK 176-MODDASI MISOLIDA).....	52
7. Ergashev Xudoberdi Rahmatjon o'g'li AXLOQ TUZATISH ISHLARI JAZOSINI IJRO ETISHNING TASHKILY-HUQUQIY MASALALARI VA UNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH CHORALARI.....	59
8. Xolmirzayeva Shoxista Arziqul qizi NOQONUNIY MIGRATSIYA VA TRANSMILLIY JINOYATCHILIK: XALQARO HUQUQIY NAMKORLIK MEKANIZMLARINING TAKOMILLASHUVI.....	66
9. Тилеуов Еркинбай Муратбаевич ЁШЛАР ЖИНОЯТЧИЛИГИНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ.....	75
10. Ёкубжонов Алишер Шерзод ўғли ПОНЯТИЕ НЕПРИКОСНОВЕННОСТИ ЧАСТНОЙ ЖИЗНИ ЛИЧНОСТИ И ВОПРОСЫ ЕЕ ОХРАНЫ В ИНФОРМАЦИОННОМ ПРОСТРАНСТВЕ.....	86
11. Зокиров Сардор Каримжонович МЕЖДУНАРОДНЫЕ СТАНДАРТЫ ФУНКЦИИ ЗАЩИТЫ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ПРАВОСУДИЯ.....	95
12. Нурматов Равшан Бегмаматович ВОЯГА ЕТМАГАНЛАР ПРОБАЦИЯСИНИНГ МАЗМУН – МОҲИАТИ.....	102



Ahmadjonov Sultonbek Shukurillo o‘g‘li


Toshkent davlat yuridik universiteti mustaqil izlanuvchisi,

O‘zMu “Huquqiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi

E-mail:: sultonbekahmadjonov@gmail.com

QALBAKI PUL, AKSIZ MARKASI YOKI QIMMATLI QOG‘OZLAR YASASH VA ULARNI O‘TKAZISH JINOYATINING AYRIM JINOIY-HUQUQIY, KRIMINOLOGIK HAMDA TERGOV TAKTIKASI JIHLTLARI (O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JK 176-MODDASI MISOLIDA)

For citation: Ahmadjonov Sultonbek Shukurillo ogli. SOME CRIMINAL-LEGAL, CRIMINOLOGICAL AND INVESTIGATIVE TACTICS ASPECTS OF THE CRIME OF MANUFACTURING AND CIRCULATING COUNTERFEIT CURRENCY, EXCISE STAMPS OR SECURITIES (BASED ON ARTICLE 176 OF THE CRIMINAL CODE OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN). Journal of Law Research. 2025, 10 vol., issue 12.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.18509210>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada pulning iqtisoddagi ro‘li va ahamiyati, pulning qalbakilashtirilishi jinoyatining qadimgi va hozirgi davrdagi ko‘rinishlari, unga qarshi kurashishning huquqiy asoslari, qalbaki pul, aksiz markalari va qimmatli qog‘ozlar yasash hamda ularni muomalaga kiritishning jinoyatining iqtisodiy oqibatlarini, jinoiy-huquqiy belgilari, kriminologik jihatdan ushbu jinoyatning kelib chiqish sabablari va shart-sharoitlari hamda tergov qilish taktikasi bo‘yicha ayrim masalalar tahlil qilingan. Tahlillar natijasida amaliyotga takliflar ishlab chiqilgan va xorijiy tajribadan misollar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: valyuta; yevro; banknot; pul; inflatsiya; soxtalashtirish; taktika; jinoyat; kriminologiya.

Ахмаджонов Султонбек Шукурилло угли,

Самостоятельный соискатель Ташкентского государственного юридического университета;

Преподаватель кафедры «Правовые науки»

Национального университета Узбекистана (УзМУ).

E-mail:: sultonbekahmadjonov@gmail.com

НЕКОТОРЫЕ УГОЛОВНО-ПРАВОВЫЕ, КРИМИНОЛОГИЧЕСКИЕ И СЛЕДСТВЕННЫЕ АСПЕКТЫ ПРЕСТУПЛЕНИЯ ИЗГОТОВЛЕНИЯ И РАСПРОСТРАНЕНИЯ ФАЛЬШИВЫХ ДЕНЕГ, АКЦИЗНЫХ МАРОК ИЛИ ЦЕННЫХ БУМАГ (НА ПРИМЕРЕ СТАТЬИ 176 УГОЛОВНОГО КОДЕКСА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН)

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются роль и значение денег в экономике, исторические и современные проявления преступления, связанного с подделкой денег, а также правовые

основы противодействия данному явлению. Рассматриваются экономические последствия, уголовно-правовые признаки и криминологические аспекты преступлений, связанных с изготовлением и введением в обращение поддельных денежных знаков, акцизных марок и ценных бумаг, включая причины и условия их совершения, а также отдельные вопросы тактики расследования. По результатам проведённого анализа разработаны практические рекомендации и приведены примеры зарубежного опыта.

Ключевые слова:

валюта; евро; банкнота; деньги; инфляция; фальшивомонетничество; тактика расследования; преступление; криминология

Ahmadjonov Sultonbek Shukurillo ogli,

Independent Researcher at Tashkent State University of Law;

Lecturer at the Department of Legal Sciences,

National University of Uzbekistan (UzMU).

E-mail: sultonbekahmadjonov@gmail.com

SOME CRIMINAL-LEGAL, CRIMINOLOGICAL AND INVESTIGATIVE TACTICS ASPECTS OF THE CRIME OF MANUFACTURING AND CIRCULATING COUNTERFEIT CURRENCY, EXCISE STAMPS OR SECURITIES (BASED ON ARTICLE 176 OF THE CRIMINAL CODE OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN)

ANNOTATION

This article analyzes the role and importance of money in the economy, the historical and contemporary manifestations of the crime of counterfeiting money, and the legal foundations for combating this phenomenon. It also examines the economic consequences, criminal-law characteristics, and criminological aspects of crimes involving the manufacture and circulation of counterfeit money, excise stamps, and securities, including the causes and conditions contributing to the commission of such crimes, as well as certain issues related to investigative tactics. Based on the conducted analysis, practical recommendations have been developed, and examples from foreign experience are presented.

Keywords: currency; euro; banknote; money; inflation; counterfeiting; investigative tactics; crime; criminology.

Kirish. Pul har bir davlat iqtisodiyotining asosiy negizi hisoblanadi. Pul siyosatini yuritishda davlatlar markaziy banklari orqali iqtisodiy choralar ko‘radi. Deyarli har bir davlatning jinoyat qonunlarida pullarni soxtalashtirish, ularni o‘tkazish, o‘tkazish maqsadida tayyorlash harakatlari kriminalizatsiya qilingan. Ushbu sohadagi jinoyatchilikka qarshi kurashish bo‘yicha kriminologik, jinoiy-huquqiy, tergov-taktik uslubiyotini rivojlantirib borish hamisha dolzarblik kasb etib kelmoqda.

Eng avvalo aytish kerakki, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 147-moddasida qayd etilishicha, O‘zbekiston Respublikasi o‘zining yagona moliya, pul va bank tizimiga ega. Ushbu tizimning naqadar ahamiyatli ekanini uning Konstitutsiya darajasida qayd etilganidan ham bilishimiz mumkin. Bosh qomusimizning 150-moddasiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasining pul birligi so‘mdir. So‘m O‘zbekiston Respublikasining butun hududida yagona va cheklanmagan qonuniy to‘lov vositasidir. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki O‘zbekiston Respublikasining hududida qonuniy to‘lov vositalari sifatida pul belgilarini muomalaga kiritishda va ularni muomaladan chiqarishda mutlaq huquqqa egadir [1].

Iqtisodiy nuqtayi nazardan olib qaraganda ham, pul tovar ayirboshlashda, iqtisodiy rivojlanishda, resurslarni tizimli tarzda tez va adolatli qayta taqsimlashda, soliq siyosatida va mamlakat byudjetini nazoratli sarflashda eng tamal vosita hisoblanadi. Shu sababli valyuta tizimini to‘g‘ri tartibga solish, pul emissiyasi va aylanmasidagi pul massasini nazorat qilish butun mamlakatning iqtisodiy xavfsizligi bilan bog‘liq o‘ta muhim va dolzarb masala hisoblanadi.

Bundan tashqari, naqd pul milliy infratuzilmaning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. U markaziy banklar, hukumatlar, moliya institutlari va fuqarolar o'rtasida nazorat va muvozanat tizimini yaratadi. Odamlarning naqd pulga bo'lgan ishonchi mas'uliyatli pul siyosati va yaxshi boshqaruvga tayanadi. Naqd pul raqobatni kafolatlaydi, bu esa moliyaviy institutlarni o'z xizmatlari uchun haddan tashqari to'lov olishdan saqlaydi va salbiy foiz stavkalaridan himoya qiladi [2].

Tarixiy tajriba. Mamlakat pul birligining ko'p miqdorda soxtalashtirilishi yirik hajmda inflatsiya va boshqa og'ir iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlariga olib keladi. Masalan, Gitler Germaniyasi Angliyaning iqtisodiyotini destabilizatsiya qilish, Yevropada eng ishochli va qadrlil pulni Germaniya puliga aylantirish uchun Angliya banknotlarini qalbakilashtiradi. Ma'lumotlarga ko'ra 1942-yilning oxiridan 1945-yil bahoriga qadar 134.610.810 dona pullar qalbakilashtiriladi va Italiya hamda boshqa davlatlarda ayirboshlanadi [3]. "Bernhard" deb nomlangan ushbu operatsiyasining soxta pullari urushdan keyin bir necha yil davomida muomalada bo'lishda davom etgan. Taxminan 20 yil o'tgach, 1964-yilda 10 funt sterlinglik banknot qayta muomalaga kiritildi, keyin 1970-yilda 20 funt sterling va 1981-yilda 50 funt sterlingga aylandi. Bu yangi banknotlar ular almashtirilishidan avvalgi oqlangan oq banknotlarga qaraganda ancha murakkab va rang-barang bo'lib, ularni qalbakilashtirish ancha qiyin edi [4].

Pul va shu kabi qimmatbaho narsalarni qalbakilashtirish ular paydo bo'lgan davrdanoq boshlangan. Chunki dastlabki davrda pullarda hozirgi kabi maxsus pul belgilari bo'lmagan. Masalan, qadimgi davrda Meksika davlatida kakao po'stlog'i kesilib, maxsus ishlov berilishi tufayli u muayyan qiymatga ega bo'lgan [5]. Keyinchalik texnologiya va ishlab chiqarish rivojlangani bilan davlatlarda pul ishlab chiqarish mexanizmi ham ancha taraqqiyga yuz tutdi. Biroq har qanday davrda ham, qonunchilik qay darajada og'ir jazolar belgilasa ham pullar va qimmatbaho narsalar qalbakilashtirilishi to'xtamagan. Masalan, XVI asrda Rus knyazliklarida pullarni qalbakilashtirishga qarshi chora-tadbirlar belgilanadi. Xususan, 1534-yili Ivan IV Vasilyevich pulni qalbakilashtirganlik uchun o'lim jazosi belgilangan [6].

Yaqin o'tmishda ham pullarni soxtalashtirish bilan bog'liq mashhur jinoyatlar ro'y bergan. Masalan, Viktor Baranov 1970-yillarda SSSR hududida 25 va 50 rubllik banknotlarni soxtalashtiradi. Soxtalashtirilgan pullar miqdori taxminan 35-40 ming rublga teng edi [7].

Hozirgi holat va xavfsizlik choralari. Hozirgi davrda ham pullarni qalbakilashtirishga qarshi kurashish, oldini olish masalalari butun dunyoda kun mavzusi hisoblanadi. Jumladan, rivojlangan davlatlar ishlatadigan pul birliklaridan biri hisoblanmish "Euro" pul birligi ham Yevropaning turli uyushgan guruhlar tomonidan qalbakilashtirishga uchraydigan banknot hisoblanadi. Xususan, Europol ma'lumotlariga ko'ra yevro ittifoqdagi 19 davlat ichida faol qo'llanadigan bu 20 va 50 Euro banknotlari eng ko'p soxtalashtiriladigan banknotlardan biri hisoblanadi [8].

Texnologiya rivojlanishi bilan banknotlarni yanada murakkab belgisi qilib ishlab chiqarish uni soxtalashtirishni qiyinlashtiradi, soxtalashtirilgan pullar bo'lsa ularni aniqlashni osonlashtiradi. Hozirgi vaqtdagi statistikalarga yuzlanadigan bo'lsak, jumladan, Amerika Federal Reserivi xabariga ko'ra banknotlardagi yuqori xavfsizlik bo'yicha maxsus belgilarining ko'pligi tufayli ularni qalbakilashtirish foizi ancha kamaygan. Aniqrog'i pul aylanmasidagi soxta banknotlar qiymati har 80.000 taga 1 ta nisbatda [9].

Yevropa Ittifoqi bo'yicha 2024-yilda 554.000 soxta yevro muomaladan muvaffaqiyatli chiqarib olingan. Asosan 20 va 50 yevrolik banknotlar soxtalashtirilgan [10].

Angliya poundining qalbakilashtirilganlik holati har 52.600 taga 1 nisbatda hisoblanib, taxminan 91.000 ta soxta banknotlar, ularning moddiy qiymati 1.9 million yevro, pul aylanmasidan muvaffaqiyatli chiqarib olingan [11].

Jinoiy-huquqiy jihatlar. Bu jinoyatning bevosita obyekti davlatning pul va kredit tizimi hamda xo'jalik yurituvchi subyektlarning normal faoliyat olib borishini ta'minlovchi munosabatlar [12, B.100]. Ya'ni qimmatli qog'oz, valyuta qimmatliklari va aksiz markalar qalbakilashtirilganda davlatning va jamiyatning iqtisodiy faoliyatiga zarar yetadi yoki zarar yetishining real xavfi vujudga keladi. Natijada turli ko'rinishdagi iqtisodiy oqibatlar yuzaga keladi.

Obyektiv tomondan esa Jinoyat kodeksi 176-moddada ko'rsatilganidek o'tkazish maqsadida qalbaki bank biletleri (banknotlar), metall tangalar, aksiz markalar, shuningdek, qimmatli qog'ozlar

yoxud chet el valyutasi yoki chet el valyutasidagi qimmatli qog'ozlar yasash yoki ularni o'tkazishda ifodalangan faol harakat bilan sodir etiladi.

Shu o'rinda aytish kerakki ayrim olimlar, jumladan M.Urazaliyev va P.Yesenbekovaga ko'ra, Aksiz markalarni JKning 176-moddasi dispozitsiyasiga kiritish va ularni ushbu moodda obyekt sifatida hisoblash noto'g'ri deb hisoblanadi. Aksiz markalar, maxsus qat'iy hisobvaraqlarga ega blankalar bo'lib, qimmatli qog'ozlar turkumiga kirmaydi va pul yoki tovarlarning ekvivalenti hisoblanmaydi, chunki ularning nominal qiymati yo'q, bu esa faqat pul vositalari va qimmatli qog'ozlarga xos xususiyatdir. Shu sababli, ular pul muomalasida ishtirok etmaydi. Ularni soxtalashtirish yoki sotish, ijtimoiy munosabatlarni, davlatning pul-kredit tizimining normal faoliyatini ta'minlovchi munosabatlarni buzishi mumkin emas. Shu bois, aksiz markasini 176-moddasi dispozitsiyasidan jinoyat obyekt sifatida chiqarish mantiqan to'g'ri ko'rinadi [13]. Ularning fikridan kelib chiqsak, aksiz markalarni soxtalashtirishni JK 176-moddasi emas Jk 228-moddasi tartibga solsa mantiqan to'g'ri bo'lishi mumkin. Masalan Rossiya jinoyat kodeksi 186-moddasi qalbaki pul yoki qimmatli qog'ozlarni tayyorlash, saqlash, tashish yoki o'tkazishni nazarda tutsa, qalbaki aksiz markasi tayyorlash, o'tkazish JK 327¹-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinadi.

Xorijiy tajribaga yuzlanadigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksidan farqli ravishda Ukraina, Polsha, Shveytsariya, Shvetsiya, Qozog'iston jinoyat kodekslarida bu modda dispozitsiyasi obyektiv tomondan tashish, saqlash, yig'ish, egallash harakatlarini ham jinoyat sifatida baholaydi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida esa faqat yasash va o'tkazish harakatlari qayd qilingan [14].

Subyektiv tomondan to'g'ri qasd bilan, modda dizpozitsiyasidan yozilganidek o'tkazish maqsadida qalbaki bank biletleri (banknotlar), metall tangalar, aksiz markalar, shuningdek, qimmatli qog'ozlar yoxud chet el valyutasi yoki chet el valyutasidagi qimmatli qog'ozlar yasash yoki ularni o'tkazishda ifodalanadi. Jinoyat kodeksi 17-moddasiga ko'ra bu jinoyat subyekt yoshi umumiy 16 yosh. Qalbaki pul, qimmatli qog'ozlardan yasashdan maqsad o'tkazish emas, shunchaki uyda saqlash uchun, hobbii sifatida yasalgan bo'lsa, realizatsiya qilish uchun muomalada ishlatishga urinilgan bo'lmasa, shaxsning harakatida jinoyat tarkibi mavjud bo'lmaydi. Shu bilan birga qayd etish kerakki "o'tkazish maqsadi"ni isbotlash sud amaliyotida biroz murakkab masala hisoblanadi.

Shaxs agar o'zidagi pullarni qalbaki ekanligini bilmasdan, uni tovar yoki xizmatlarni olish, ayirboshlashda realizatsiya qilgan bo'lsa ham u jinoyat sodir qilgan hisoblanmaydi. Bunda surishtiruv va tergov organlari shaxsning bu qalbaki pullarni qayerdan olganliklarini yaxshilab tekshirishlari, dastlabki manbani aniqlashlari lozim hisoblanadi.

Kriminologik jihatlar. Kriminologik jihatdan yondashilganda bu jinoyatning kelib chiqishiga quyidagi omillar sabab bo'lmoqda. Masalan, ba'zi kupyuralarning qalbakilashtirish uchun beparvolik tufayli oson qilib ishlab chiqarilganligi, xususan ayrim mutaxassislarining fikricha O'zbekiston Respublikasining 100.000 so'mlik kupyurasida ishlatilgan och tillarang rangni uy sharoitida rangli printerda chop etish va muomalaga kiritish birmuncha oson hisoblanadi. Bu omil esa o'z navbatida xuddi shu kupyurani boshqa variantda qayta nashr etishga sabab bo'lishi mumkin [15]. Bu esa pirovardda mamlakat byudjetiga ortichqa yuk bo'lishi va fuqarolarda pulga nisbatan ishonchning pastlashiga olib kelishi mumkin. Boshqa turdagi kupyuralar ham soxtalashtirishga uchrashi mumkin. Fikrimizga sud hukmidan misol keltiradigan bo'lsak, fuqaro A.H va A.R. birgalikda Qiziltepa tumani "Sayohat" mahallasi hududidagi M-37 avtomobil qatnov qismida joylashgan savdo do'konida 1 dona "Lenova" rusumli kompyuter va 1 dona "Epson" rusumli printer va boshqa kerakli buyumlarni keltirib, ular yordamida 200.000 so'mlik kupyura tasvirini skaner qilishib, maxsus ilovalar yordamida unga ishlov berishib, jami qiymati 1.200.000 so'mlik milliy valyuta qiymatliklarini "A-4" o'lchamdagi "Double – A" nomli notekis yuza qatlamiga ega bo'lgan maxsus oq qog'ozga chop etib, laklar yordamida ishlov berib, shaxsiy ehtiyojlari uchun ishlatib yuborishgan [16].

Odamlarning turli qimor va tavakkalchilikka asoslangan onlayn o'yinlarda qatnashishi, ayniqsa pullarni qalbakilashtirish va uni o'tkazishga bo'lgan urinishining asosiy sabablaridan yana biri – oson pul topishga bo'lgan istakdir. Agarda odamlar orasida "siz tez boyib ketishni xohlaysizmi?"

Tez boyish haqida hech o‘ylab ko‘rganmisiz? deya so‘rovnomalar o‘tkazsak, tabiiyki ko‘pchilik insonlar “ha” deb javob berishadi. Bunday javob berganlar kelajakda shu turdagi jinoyatlar sodir qilishi mumkin bo‘lgan potentsial “jinoyatchilar” bo‘lishi mumkin. Shu sababdan har qanday jinoyatni oldini olish uchun eng avvalo shaxslarni jamiyatda noto‘g‘ri yo‘llarga kirib qolishini oldini olish, ulardan har oy ijtimoiy so‘rovnomalar olish orqali fikrlash tarzini o‘rganib borish lozim. Agarda so‘rovnomalar natijasi ko‘pchilik yoshlarning oson va qing‘ir yo‘llar orqali boyishga bo‘lgan qiziqishi kuchayganidan darak bersa ma‘naviy-ma‘rifiy targ‘ibotlarni kuchaytirish lozim bo‘ladi.

Soxta pullarga qarshi kurashish bo‘yicha xalqaro hamkorlikni kuchaytirish ham yana bir muhim tadbir hisoblanadi. Misol uchun, Yevro ittifoqidagi markaziy banklar Interpol bilan hamkorlikda “Counterfeit Currency Task Force” tashkilotini tuzishgan. Bundan tashqari Yevropol tashkiloti nafaqat Yevroittifoqdagi davlatlar, balki undan tashqaridagi xorijiy davlat tashkilotlari bilan ham faol hamkorlikni amalga oshiradi [17].

Yana bir muhim jihat shuki, pulni qalbakilashtirish qiyin bo‘lishi uchun undagi maxsus belgilar soni va sifati ko‘p bo‘lishi kerak. Oddiy fuqaro uchun haqiqiy pulni soxtasidan ajratib olishni o‘rgatuvchi qo‘llanmalar, videodarslar, mavjud bo‘lishi kerak. Masalan, Yevrobanknotlar eng ishonchli va maxsus belgilari ko‘p pul birligi hisoblanib, uni chop etishdagi standartlar, qalbaki pul bilan ajratib olish oson bo‘lishi uchun maxsus belgilarni o‘qish bo‘yicha video qo‘llanmalar Yevropa Markaziy Banki saytida mavjud [18].

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy web saytida ham har bir banknotning tavsifi batafsil yozilgan. Masalan, muomalaga kiritilgan sana, pul o‘lchami, undagi aks etgan tasvirlar, yozuvlar, maxsus belgilar vahokazo [19]. Fikrimizcha, ushbu ma‘lumotlarni yanada osonroq tarzda, media kontentlar orqali, qo‘shimcha ma‘lumotlar bilan keng ommaga tarqatish ko‘proq samara berishi mumkin.

Fikrimizcha bu amaliyotlarda Markaziy Osiyo mintaqasida ham tashkil qilish – bu turdagi jinoyatlarni oldini olish, ularga qarshi birgalikda kurashish va samarali hamkorlik aloqalari o‘rnatish dolzarb ahamiyatga ega hisoblanadi.

Tergov taktikasi. Tergov taktikasi jihatidan, bu turdagi jinoyatlarni tergov qilishda quyidagilarni e‘tiborga olish lozim. Ma‘lumki, Jinoyat protsessual kodeksi 82-moddasiga asosan Ishni ayblov xulosasi yoki ayblov dalolatnomasi bilan sudga yuborish va ayblov hukmi chiqarish uchun isbotlanishi lozim bo‘lgan holatlar sanab berilgan. Ushbu modda barcha turdagi jinoyatlar uchun umumiy hisoblanadi. Jinoyat kodeksi 176-moddasidagi jinoyatni tergov qilish uchun esa avvalo quyidagi holatlar aniqlanishi lozim.

1. Agar O‘tkazish maqsadida qalbaki bank biletlari (banknotlar), metall tangalar, aksiz markalar, shuningdek, qimmatli qog‘ozlar yoxud chet el valyutasi yoki chet el valyutasidagi qimmatli qog‘ozlar yasash yoki ularni o‘tkazish fakti mavjud bo‘lsa u kim tomonidan va qancha miqdorda ekanligi;

2. Aynan kim, qachon, qaysi turdagi pul markalari yoki qimmatli qog‘ozlarni soxtalashtirishda qatnashganligi;

3. Qalbakilashtirishda qo‘llanilgan usullar, uskunalar, xomashyo va ularning manbalari;

4. Ularning saqlangan va saqlanishi ehtimoli yuqori bo‘lgan joylari;

5. Ushbu jinoyatning boshqa ishtirokchilari mavjudligi, guvohlar yoki jinoyatga dahldor kimsalar.

Jinoyat haqida xabar kelib tushgandan so‘ng, kechiktirib bo‘lmaydigan tergov harakatlardan birinchisi bu hodisa sodir bo‘lgan joyni ko‘zdan kechirishdir. Bunda gumonlanuvchining valyuta, qimmatli qog‘ozlar, aksiz markasini qalbakilashtirish maqsadida o‘z uyida, yoki boshqa binoda har xil asbob-uskunalar va boshqa jixozlar, xomashyo, qalbakilashtirishda ishlatish uchun tayyorlangan maxsus qoliplar, chop etish vositalari, maxsus qog‘ozlar, aralashma ranglar, maxsus ishlov berish uchun laklashda ishlatiladigan bo‘yoq kukunlari va boshqa shu kabi predmetlar asosiy dalillar sifatida aybni isbotlashda muhim ro‘l o‘ynaydi.

Hodisa sodir bo‘lgan joyga birinchi yetib borgan Ichki ishlar xodimi zimmasiga hodisa sodir bo‘lgan joyni tergovchi va boshqa mutaxassislar kelgunicha o‘rab qo‘yish, begona shaxslarni yaqinlashtirmaslik vazifasi yuklatiladi. Tergovchi esa ish yuritishda mustaqil subyekt sifatida hodisa

joyidan dalillar olish ketma-ketligini, tartibini, statik va dinamik tarzda ko‘zdan kechirish taktikasini puxta tayyorgalikdan so‘ng tizimli olib borishi, protsess ishtirokchilarini bir-biriga halal berishi natijasida dalil bo‘lishi mumkin bo‘lgan nozik jismlarga shikast yetishini oldini olish zarur.

Bundan tashqari ko‘rsatuvlarni hodisa sodir bo‘lgan joyda tekshirish tergov harakati ham jinoyatni sodir etish usuli va jinoyatning obyektiv tomoni boshqa belgilarini aniqlashda muhim rol o‘ynaydi. Shu jumladan tergovchi ba‘zi tergov tasmollarini tekshirish uchun tergov eksperimenti o‘tkazishi ham mumkin. Ma‘lumki Jinoyat protsessual kodeksi 173-modda 1-qism 8-bandiga muvofiq pul belgilari, qimmatli qog‘ozlar va boshqa hujjatlar qalbakilashtirilganligini aniqlash uchun ekspertiza tayinlanishi shart. Shu sababli tergovchi voqea joyidan olingan har bir ashyoviy va boshqa turdagi dalillarni yig‘ishda sinchkovlik bilan yondashib, ishda qatnashayotgan boshqa shaxslar, jumladan mutaxassis harakatlarini qat‘iy nazorat qilishi lozim. Yo‘qsa jinoyatni qaynoq izidan ochib, aybdorni adolatga taslim qilishga xizmat qiluvchi dalillar e‘tiborsiz qoldirilishi mumkin.

Gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchini dastlabki tarzda so‘roq qilishda tergovchi ular bilan nizosiz holatda so‘roq olib borishga urinishi, gumonlanuvchi shaxs bilan tezroq psixologik kontakt o‘rnatishi hamda so‘roq davomida isbotlanishi lozim bo‘lgan holatlar yuzasidan ma‘lumotlar yig‘ishi va bu ma‘lumotlardan kelib chiqib o‘z kalendar rejasi va tergov tasmollarini shunga muvofiq tarzda o‘zgartirib borishi kerak.

Xulosa va takliflar. Yuqoridagi ma‘lumotlardan kelib chiqqan holda quyidagi takliflarni ilgari surishni lozim deb topdik.

Birinchidan, Jinoyat kodeksi 176-modda dispozitsiyasiga o‘tkazish maqsadida “tashish va saqlash” harakatlarini qo‘shish orqali moddani yanada konkretlashtirish zarur.

Ikkinchidan, bu turdagi jinoyatlar ko‘payib ketayotgani sababini ijtimoiy so‘rovlar o‘tkazish orqali aniqlashtirish va tizimli tarzda statistikasini yuritish hamda tadqiqotlar o‘tkazish uchun aql markazlari faoliyatini rag‘batlantirib borish lozim.

Uchinchidan, pullardagi maxsus belgilar soni va sifatini yanada oshirishi va bu borada yevropa standartlarini joriy etish bo‘yicha xalqaro hamkorlikni rivojlantirish kerak.

To‘rtinchidan, bu turdagi jinoyatlarni tergov qilish metodikasini yanada takomillashtirish uchun Yevropol xodimlari bilan hamkorlikda ilmiy konferensiyalar o‘tkazish maqsadga muvofiq.

Xulosa o‘rnida aytish kerakki, ushbu jinoyat qadimgi davrdan beri mavjud bo‘lgan kriminologik jinoyatlar turkumiga kiradi. Ijtimoiy xavflilik nuqtayi nazaridan olib qaraganda ham bu jinoyat nafaqat 1 ta mamlakat va undagi istiqomat qilayotgan fuqarolar budjeti, balki unga qo‘shni bo‘lgan mamlakat va xalqlarning farovonligiga ham jiddiy zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan xalqaro xarakterdagi jinoyat hisoblanadi.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.01.05.2023-yil Havola:(The Constitution of the Republic of Uzbekistan (as amended on 1 May 2023.reference:) <https://lex.uz/docs/-6445145>
2. Why Cash is Essential in the 21st Century. Guillaume Lepecq. 08.12.2022. Article. <https://www.finance-watch.org/blog/why-cash-is-essential-in-the-21st-century/>
3. Ikkinchi jahon urushidagi pullar. Ilmiy maqola. Kommersant jurnalida 29.04.1998-yil e‘lon qilingan.(Currencies of the Second World War. Scientific article published in the journal Kommersant, 29 April 1998.) <https://www.kommersant.ru/doc/21513>
4. “Bernhard” operatsiyasi. Angliya banki maqolasi. 26.01.2024. Alison Cook. Havola (Operation “Bernhard”. Article of the Bank of England, 26 January 2024.Author: Alison Cook. Link): <https://www.bankofengland.co.uk/museum/online-collections/blog/operation-bernhard> .
5. Байдужа Д. Е., Крюкова А. А. возникновение и развитие фальшивомонетничества // Форум молодых ученых. 2017. №11 (15). URL (Bayduzha, D. E., & Kryukova, A. A. The Emergence and Development of Counterfeiting. Forum of Young Scientists, 2017, No. 11 (15). URL:): <https://cyberleninka.ru/article/n/vozniknovenie-i-razvitie-falshivomonetnichestva>
6. Сёмин А. Г., Горовой В. В. история становления и развития фальшивомонетничества: от древности до современности // Вестник науки. 2024. №5 (74). (Syomin, A. G., & Gorovoy, V. V.

- The History of the Formation and Development of Counterfeiting: From Antiquity to the Present Day. Bulletin of Science, 2024, No. 5 (74).) URL : <https://cyberleninka.ru/article/n/istoriya-stanovleniya-i-razvitiya-falshivomonetnichestva-ot-drevnosti-do-sovremennosti>
7. Viktor Baranov haqida Rossiya Ichki ishlar vazirligi maqolasi. Havola (Article on Viktor Baranov. Ministry of Internal Affairs of the Russian Federation. Link:): <https://mvdmedia.ru/publications/shield-and-sword/bylo-delo/shedevram-predpochyel-chetvertak/>
 8. Europolning pul qalbakilashtirish bo'yicha hisoboti. Elektron havola (Europol Report on Counterfeiting of Currency. Europol. Link): <https://www.europol.europa.eu/crime-areas/currency-counterfeiting>
 9. Muomaladagi qalbaki Amerika pullari hajmi. Ruth Judson.01.02.2025. (Estimating the Volume of Counterfeit U.S. Currency in Circulation. Ruth Judson. 01.02.2025. Link) Havola: <https://www.federalreserve.gov/econres/ifdp/estimating-the-volume-of-counterfeit-us-currency-in-circulation.htm>
 10. 2024-yil hisobiga qalbaki evro banknotlar miqdori ozligicha qoldi. Nicos Keranis. 21.02.2025. Havola: (Number of counterfeit euro banknotes continues to be low in 2024. Nicos Keranis. 21.02.2025. Link) <https://www.ecb.europa.eu/press/pr/date/2025/html/ecb.pr250221~c0d1113d2c.en.html>
 11. Qalbaki pullar. Anliya Banki hisoboti. 01.07.2025. Havola: (Counterfeit Banknotes.Bank of England Report, 1 July 2025.) <https://www.bankofengland.co.uk/banknotes/counterfeit-banknotes>
 12. Rustambayev M.X. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. Tom 4. Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar. Ekologiya sohasidagi jinoyatlar. Hokimiyat, boshqaruv va jamoat birlashmalari organlarining faoliyat tartibiga qarshi jinoyatlar. Darslik. T.: O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2018. –529 bet. (Rustambayev, M.Kh. Course of Criminal Law of the Republic of Uzbekistan. Vol. 4. Crimes in the Field of Economy. Crimes in the Field of Ecology. Crimes against the Procedure of Activity of State Authorities, Administrative Bodies, and Public Associations. Textbook. Tashkent: Military-Technical Institute of the National Guard of the Republic of Uzbekistan, 2018. 529 p.)
 13. Уразалиев, М., & Есенбекова, П. (2022). Совершенствование уголовного законодательства, предусматривающего ответственность за изготовление, сбыт поддельных денег, акцизных марок или ценных бумаг. Общество и инновации, 3(1), 89–97. (Urazaliev, M., & Yesenbekova, P. (2022). Improvement of criminal legislation providing liability for the production and circulation of counterfeit money, excise stamps, or securities. Society and Innovation, 3(1), 89–97.)
 14. Черкашин Е. Ф. Сравнительно-правовой анализ зарубежного уголовного законодательства в области борьбы с подделкой денег или ценных бумаг // Юридическая наука и правоохранительная практика. 2008. №2 (5). URL (Cherkashin, E. F. A Comparative Legal Analysis of Foreign Criminal Legislation in the Field of Combating the Counterfeiting of Money or Securities. Legal Science and Law Enforcement Practice, 2008, No. 2 (5). URL:): <https://cyberleninka.ru/article/n/sravnitelno-pravovoy-analiz-zarubezhnogo-ugolovnogozakonodatelstva-v-oblasti-borby-s-poddelkoy-deneg-ili-tsennyh-bumag>
 15. Kun.uz sayti. “Bankomatdan ham o'tadi” – Turkiyadan kelayotgan qalbaki pullar nomli maqolasi. Bobur Akmalov. 2025-yil oktabr. (“They Even Pass Through ATMs”: Counterfeit Banknotes Coming from Turkey. Kun.uz website. Author: Bobur Akmalov. October 2025.) <https://www.youtube.com/watch?v=Qr3DSEupyJY>
 16. Navoiy viloyati sud arxividan. Jinoyat ishi raqami: № 1-2105-2301/128 (From the Archive of the Navoiy Regional Court. Criminal case No. 1-2105-2301/128.)
 17. Partners & Collaboration. Fostering cooperation among law enforcement and other partners around the world. 28.07.2025. link: <https://www.europol.europa.eu/partners-collaboration>
 18. EUROPEAN CENTRAL BANK. Security features. <https://www.ecb.europa.eu/euro/banknotes/current/security/html/index.en.html#feel>
 19. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Banknotlar tavsifi. (The Central Bank of the Republic of Uzbekistan. Description of notes.) <https://cbu.uz/en/banknotes-coins/banknotes/>

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

JOURNAL OF LAW RESEARCH

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000